



O`RTA MAKTABLARNING 8-11 SINFLARINI ESSE YOZISHGA O`RGATISH METODIKASI

Nishanova Shohida Abdulxayevna

Namangan viloyati Namangan shahar 43-maktabning ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Yuldasheva Nozima Solijonovna

Namangan viloyati Yangi Namangan tumani 35-maktabning ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Nishonova Xurshida Yusufjanovna

Namangan viloyati Namangan shahar 43-maktabning ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6548117>

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o`rta ta`lim maktabining 8-11 sinflarini esse yozishga o`rgatishning uslubiy asoslari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar. Muloqot, nutq madaniyati, boshlang`ich ta`lim, matn tuzish, darslik, esse nazariyasi.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarida Ona tili fanini o`qitishning asosiy maqsadi — o`quvchilar o`z fikrini og`zaki va yozma tarzda to`g`ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o`z g`zar fikrini anglaydigan — muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

Boshlang`ich ta`limni yakuniga etkazgan o`quvchi, 5-7 sinfda dastlab ona tiliga oid qarashlarni mustahkamlashdan boshlaydi. Bu

albatta, o`quvchi ruhiyatida ham fikrlash bilan bog`liq jarayonni yuzaga keltiradi. 8-sinfdan ona tili muallimi o`quvchilarni dastlab mustaqil matn tuzish, undagi so`zlarni tushuntirish mahoratini shakllantirishi kerak. Mazkur vaziyatda o`qituvchi darslikning o`zi bilan kifoyalanishi, ajratilgan soatlardagina matn bilan ishlash kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun o`qituvchi har bir ona tili sabog`ida matn bilan ishlash daqiqalarini tashkil etishi lozim. Ayniqsa, matnda mustaqil fikrlash kompetensiyasini

shakllantirish nazarda tutilib, bu jarayonlarda “ESSE” yaratish bilan bogʻliq nazariy qarashlar taqdim etilib, uni amaliyotga joriy etish samarali.

Esse (frans. — urinish, sinash, ocherk) — erkin kompozitsiyali, uncha katta boʻlmagan nasriy asar. Esse orqali narsa va hodisalarga yoki shaxsga oid subʼyektiv fikr bayon qilinadi. Esselar falsafiy, tarixiybiografik, publitsistik, adabiy-tanqidiy, ilmiy-ommabop yoki sof belletristik xarakterda boʻladi. Esse uslubi obrazlilik, aforistikligi, jonli tilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Mazmuni muayyan sabab yoki masalaga oid tugal tafsilotni yoki aniqlikni talab qilmaydigan individual taassurot va mulohazalardan iborat boʻladi. Mustaqil janr sifatida A. Montel ijodida tarkib topdi. Uzbek adabiyotida 20-asrning 70—80-yillaridan esse yaratila boshlandi.

Esse fransuz tilidan tarjimada “tajriba, andaza” maʼnolarini anglatadi. Esse — prozaik etyud, qandaydir bir predmetga oid umumiy yoki dastlabki mulohazalar. Koʻpincha esse yozish mashgʻulotning boshida, yoki refleksiya sifatida, ohirida taklif

etiladi. Esse yozish koʻpincha nazariy mashgʻulotlar, maʼruzalar hamda mustaqil mashgʻulotlar tarkibida oʻtkaziladi. Uning quyidagi turlari tegishli maqsadlarga muvofiq holda qoʻllaniladi:

Esse — taklif etilgan mavzu yuzasidan 1000 dan 5000 gacha soʻz hajmidagi insho.

Esse — bu muallifning taʼkidlab oʻtadigan individual nuqtayi nazarini erkin ifoda etish shakli; qandaydir mavzu boʻyicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni oʻz ichiga oladi.

Asoslangan esse — qoʻyilgan savolga asosli javob keltirilgan yozma ishdir. Muallif maʼlum bir nuqtayi nazarni egallaydi va uni himoya qiladi, bunda oʻzining nuqtai nazarini qoʻllab-quvvatlash uchun bir qancha asoslangan isbotlarni keltiradi. Maqsad — muallif lozim topadigan qarashlarni boshqalarning ham qabul qilishiga ishontirish.

Asoslangan samarali esse yozish uchun agar siz oʻz esseingizni yozish jarayonida uni fikriy jihatdan kitobxonlarga (uni oʻquvchilarga) “taqdim eta olsangiz” va ular bilan

fikriy muloqot o'rnata olsangiz, uni yozishingiz engil bo'ladi.

Asoslangan esse tarkibi:

Misol sifatida "Menimcha mamlakatimiz iqtisodi gullab yashnaydi, agarda ..." mavzusida asoslangan esse yozing, degan topshiriqni bajarish tartibini ko'rib chiqamiz:

Mavzu (savol)ga nisbatan muallif nuqtai nazarining bayon etilishi (1 xatboshi).

Bayon etilgan nuqtai nazarni asoslash – ushbu nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha muallifning ishonarli dalillari va ushbu nuqtai nazarni qabul qilishga ishontirish.

Xulosa – rezyumesse

Asoslangan essenini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari:

mavzu mazmuniga mos kelishi (mavzudan chetga chiqmaslik);

mazmuni, fikri;

unga taalluqli muammoni oldindan ko'ra bilish, shaxsiy nuqtai nazari, ma'lumotlar etarliligi;

uslub, ifoda aniqligi, muayyanligi;

orfografiya qoidalariga rioya qilinishi.

Besh daqiqali esse – o'rganilayotgan mavzu bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida o'quv mashg'uloti oxirida 5 daqiqa oralig'ida o'tkaziladi. Yozma topshiriqning ushbu turi talabalarning mavzuga doir o'z mustaqil fikrlarini ifodalay olishga yordam berish va o'qituvchiga o'z talabalari o'quv materiali bilan tanishganda qaysi jihatlariga ko'proq e'tibor berishlari xususida fikrlash imkonini beradi.

Ushbu yozma topshiriq turida ta'lim oluvchilardan quyidagi ikki topshiriqni bajarish: mazkur mavzu bo'yicha ular nimalarni o'rganganliklarini mustaqil bayon etish va ular baribir javobini ololmagan bitta savolni berish so'raladi.

O'qituvchi taklif etishi mumkin:

"Men bu ... haqida nimani o'ylayman" yoki "Nima uchun, mening fikrimga ko'ra ..." savollariga javob bering,

O'quv mashg'ulotida berilgan talablar uchun yangi sanalgan g'oyani tavsiflash va sharhlab berish;

olingan bilim, ko'nikmalar qayerda amaliyotda qo'llanilishini tavsiflash.

Ushbu ko'rinishdagi esse baholanmasligi ham mumkin. Ammo, o'qituvchi juftliklarga ajralish, ishlar bilan o'zaro almashish va yozilganlarni muhokama qilish taklifini berishi mumkin. Ushbu holda o'qituvchi 2-3 ta essenini tanlab tekshirishi mumkin, ularni ovozini chiqargan holda sharhlashi talabalar bilan muhokama qilishi va xulosa qilishi mumkin.

Erkin yozish metodi – besh daqiqali essening boshqa ko'rinishi bo'lib, talabalarning muayyan mavzu bo'yicha o'z xayollariga kelgan barcha narsalarni to'xtamasdan yozish mashqlaridan iborat. Masalan, talabalarga besh daqiqa ichida “Ulug'bek fojeasi” mavzusi bo'yicha o'z hayollariga kelgan barcha narsalarni to'xtamasdan yozishni taklif qilish mumkin. Besh daqiqa tugaganida (eslatma, besh daqiqa tugadi deb e'lon qiling va ishni tugallash uchun yana bir daqiqa vaqt bering, zero qiziqarli fikrlar odatda tang vaziyatlarda tug'iladi) ularga o'z

yo'zganlarini sheriklariga o'qib berishlarini taklif etish mumkin.

Mazkur bosqichda o'qituvchining ixtiyorida ko'p imkoniyatlar bo'ladi. Masalan, juftliklarga o'z fikrlarini butun guruh bilan o'rtoqlashishni taklif etish va guruhli aqliy hujum vaziyatini yaratish mumkin. Masalan, 8-11 sinflarga mo'ljallangan ona tili saboqlarida muallim matn va lug'atlar bilan ishlash kechimidagi o'quvchilarga saboq avvalida hayotidagi eng muhim voqeani so'zlab berish yoki yozish vazifasini yuklaydi. Bu oddiy jarayon, va aksariyat o'qituvchilar bu kabi mashg'ulotni o'quvchilariga juda ko'p bergan. O'quvchi albatta bunday topshiriqni bajarishda ijodiy fikrlash tomonidan boradi.

Barcha o'quvchilar tuzgan matnlarini o'qib bergach, o'qituvchi ana shu matnga mos sarlavha topishni topshiriq qilib beradi. E'tabor bering, o'quvchi nimani o'ylasa shuni yozadi. O'ylagan fikrlarini umumlashtirib unga sarlavha topadi. Mavzular turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, “Mening bir kunim”, “Ta'til kunlarida”, “Buvimnikiga sayohat”, “Do'stim bilan men” va h.k.

O'qituvchi o'quvchilar yozgan taassurot ona tilida esse deb atalishini o'quvchi bilishi kerak.

Esse tuzilishiga ko'ra, murakkab sintaktik butunlik, xat boshi, bo'lim, qism, bob va paragraflardan tashkil topishi mumkin. Maktabda o'quvchilar tomonidan tuzilishi ko'zda tutilgan esselar asosan, gap, abzats va qismdan iborat bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarda ana shunday esse tuza olish kompetensiyasini shakllantirishi kerak.

Saboq jarayonida gap, abzats va qismning istilohiy ma'nolarini izohlash orqali "Aqliy hujum", "BBB", "Klaster", "Mening fikrim o'zgacha" usullaridan foydalanish mumkin. Bu birinchidan essening ichki tuzilishi haqidagi umumiy fikrdan xususiyalarini ajratib olish imkonini bersa, ikkinchidan o'quvchilarni o'z fikrlarini mustaqil ayta olish, esse haqidagi nazariy ma'lumotni anglashlariga sharoit yaratadi.

8-9 sinf davomida esse uning tuzilish yo'l-yo'riqlari, essegga mavzu tanlash, uning grammatik asoslari, essening morfologik, sintaktik va

fonetik jihatlarini tahlil qila olish mahorati shakllantirib borilishi kerak.

Esselar ma'lum uslublarda yaratiladi. Bu ma'lumotlar 10-11 sinfda batafsil o'rganiladi. O'qituvchi o'quvchilarning esseni ko'rsatilgan tartibda, namunali yaratishlariga erishishda gap tuzish malakasini singdirishi kerak.

1. Ixcham gap tuzish malakasi. O'quvchi gap tuzishda ortiqcha so'zni ishlatmasligi, maqsadni aniq ifoda etuvchi so'zni topib qo'llashga odatlanishi kerak. Masalan, "Bog'da pishib etilgan mevalardan bir savat uzib, qo'shni qishloqda yashaydigan buvimnikiga olib borib berdim – bog'imizdagi mevalardan uzib, buvimga olib bordim" tarzida.

2. Gapni kengaytirish va toraytirish malakasi. O'quvchilarga gap bo'laklari mavzusini o'tish jarayonida yoyiq va yig'iq gapni qo'llashga o'rgatiladi. Masalan, yig'iq gapni kengaytirish, yoki yoyiq gapni toraytirish usullaridan foydalanamiz.

3. Gapning mazmunini saqlab, shaklini o'zgartirish malakasi. Bunda sodda gaplarni ma'nodoshlari

bilan almashtirish, qo'shma gaplardan sodda gaplar, ko'chirma gaplardan o'zlashtirma gaplar hosil qilish tajribasidan foydalaniladi.

4. Mustaqil gap tuzishga o'rganish malakasi.

Xullas, 8-11 sinfda "Esse yaratish" saboqlari hamda fakultetiv va mustaqil mashg'ulotlarni tashkil

etish jarayonida esse so'zining istilohiy va leksik ma'nolari, essening shakliy, mazmuniy, ifoda tuzilishi singari jihatlarni o'quvchilarga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzuni o'rgatishda o'quvchilarining yosh xususiyatlaridan kelib chiqib yangi metod va innovatsiyalardan foydalanishni taqazo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Азизов О., Тилшуносликка кириш, -Т:, 1960, 59-61 бет
2. Менглиев Б., Холиёров У., Ўзбек тилидан универсал қўлланма. -Т:, "ФАН" 2008, 67-бет
3. Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва бошқалар, Ҳозирги ўзбек адабий тили, -Т:, "Фан ва технология", 2009.
4. Миртожиев М., Ўзбек тили семасиологияси. -Т:. "Мумтоз сўз", 2010.